


Z.Y. SHANASIROVA

**TABIATNI
TANISHTIRISH
NAZARIYASI VA
METODIKASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Shanasirova Zahro Yo'ldashovna

**TABIATNI TANISHTIRISH
NAZARIYASI VA METODIKASI**

Darslik

5111800 - Maktabgacha ta'lim

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

**«BOOK TRADE 2022»
TOSHKENT – 2022**

UO'K: 377.632.14

KBK: 74.2ya32

Z.Y.Shanasirova

Tabiatni tanishtirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – Toshkent.
«BOOK TRADE 2022», 2022. – 102 b.

Mazkur darslik oliy ta'lim muassasalarida 5111800 – “Maktabgacha ta'lim” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak tarbiyachilar uchun mo'ljallangan bo'lib, “Tabiatni tanishtirish nazariyasi va metodikasi” fani bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladi.

Tuzuvchi:

Z.Y.Shanasirova – ChDPU “Maktabgacha ta'lim” kafedrasi o'qituvchisi

Tagirchilar:

A.Karimdonov – ChDPU “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi p.f.n., dotsent.

D.A.Abdurahimova – O'zbekiston Respublikasi Qurolti Kuchlar Akademiyasi “Gumanitar fanlar” kafedrasi p.f.d. (DSc), professor

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23 - noyabr dagidagi 500-sonli buyrug'i bilan chop qilishga tavsiya etilgan hamda **O'quv adabiyotini nashrguvohonasiga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-8774-1-2

KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlarda muq tabiatni muhofaza qilishga oid (754-XII-son 09.12.1992 Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida) qonun va qarorlar qabul qilindi. Ushbu Qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'un muvozanatda rivojlantirishni, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

Inson tabiatining ajralmas qismi, tabiat insonning xayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlarni taqdim etadi. Ayni paytda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat talab etiladi.

Bizga ma'lumki, yoshlarni yuqori malakali qilib tarbiyalash uchun yuqori malakali mutaxassislar tarbiyalash zarurdir. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni tabiatni asrab avaylashga, ona tabiatga muxabbatni shakllantirishga, ma'nan boy, aqlan etuk, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirishda nazariy metodik bilimlarni egallashi g'oyat muhimdir.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan «O'zbekiston Respublikasini yamada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunlig 4-moddasida har bir bolaning iste'dodi, shahonalarini, ishtiyoblari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi keltirilgan¹.

¹ «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RO-595-son 16.12.2019

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda

"Uzlaksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 1059-son qarorida "Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan bolalarga asosiy faoliyat tirlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish, mulqot, kuzatish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish, faoliyat va syujetli-rolli oyinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash, miliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali miliy umuminsoniy qadriyatlar o'rgatish vazifalari qo'yildi"¹

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalashning eng samarali usullaridan biri bu tabiat bilan tanishtirishdir. Tabiat — bolani ma'naviy boyitishning bitmas-tugannas manbaidir Bolani tabiat bilan tanishtirishda tarbiyaning turli metodlarini qo'llash va «Ilk qadam»davlat o'quv dasturida belgilab berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uy'g'unligini ta'minlash, ularni o'yin tarzida tashkil etish lozim².

Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'ladi. Ularni yam-yashil o'tloqlar, anvoi gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jig'a va ko'lmaklar o'ziga jalb qiladi. O'simlik hamda hayvonotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uy'g'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan mulqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida realistlik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabarda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabada bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim vazifasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabada bo'lishni tarkib toptirishga katta

o'ltib beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo'lmaganda ilk bilimlarni egallab olib, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdiridagina ular tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g'amxo'rona munosabada bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Bolalarda tabiatga, jonajon o'lka ona-Vatanga muhabbat xuddi mana shu asosda shakllanadi.

Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida murg'ak qablarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Darslikda maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh bosqichiga mos psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilk yoshdagi kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo'ljallangan bilim va ko'nikmalar hajmini o'z ichiga oladi.

¹ "Uzlaksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori 31.12.2019

² "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2018.

I BOB MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHITIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHA.

§ 1. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining fan sifatida shakllanishi, maqsadi va vazifalari

O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh galbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqealarning sirasorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deylilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi.

Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmastugannas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'limtarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Biosfera yerda hayot paydo bo'lgandan boshlab, uzog tarixiy davrlar davomida rivojlanib kelmogda. Yerning tirik organizmlar va biogen cho'kindi tog' jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik V.I.Vernadskiy *biosfera* (yunoncha — «bios» — hayot, «sfera» — shar) deb nomlagan. Biosfera sayyoramizning «hayot qobig'i» hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlardan

iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi.

V.I.Vernadskiy tushunchasiga ko'ra hozirgi vaqtda biosferaning tarkibiga faqatgina yerning qobig'ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay, balki qadimgi davrlarda organizmlar ishtirokida hosil bo'lgan biosfera qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosfera *neobiosfera* va *prebiobiosfera* kabi tarkibiy qismlarga ajratiladi.

Biosfera murakkab harakatdagi tizim ekan, unda moddalar almashuvi natijasida energiyaning qabul qilinishi, to'planishi va o'tkazilishi kabi jarayonlar boradi. Biosfera funksional nuqtai nazardan bir necha qatlamlardan tashkil topgan.

Biosfera yer sharidagi eng yirik ekotizim bo'lib, u quyi darajalardagi kichik tizimlarga bo'linib ketadi. Bular quruqlik va suv havzalari, ekenlar, mezosferaning yuqori qatlami, atmosferaning quyi qatlamlari, bundan tashqari quruqlikda evolyutsion tarixiy tizimlar sifatida biogeografik tabiiy mintaqalar, biotmlar, landschaft zonalar, ayrim landshaftlar va hokazolarga ajraladi.

Biosferaga katta doiradagi biotik moddalarning aylanishi xarakterlidir. Biosferaning umumiy vazni $3 \cdot 10^{24}$ bo'lganda, tirik modda $1,8-2,5 \cdot 10^{18}$ g (quruq vazn)ga teng bo'ladi.

Biosfera tushunchasi fanga 1875yilda avstraliyalik zoolog E.Zyuss tomonidan kiritilgan. Biosfera haqidagi ta'limot esa akademik V.I.Vernadskiy tomonidan yaratilgan. Sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini V.I.Vernadskiy «tirik modda» deb atadi. «Tirik modda»ning eng muhim xususiyatlari uning umumiy vazni, kimyoviy tarkibi va energiyasi hisoblanadi. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi «o'lik modda» bo'lib, V.I.Vernadskiyning ayishi bo'yicha tirik organizmlar qatnashadigan biosferadagi moddalar yig'indisidan hosil bo'ladi. Biosferada «oraliq moddalar» ham mavjud bo'lib, ular o'lik va tirik moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo'ladi.

Ekologiya. Bugungi kunda ekologiya fanitushunchasi har bir kishining ongiga singib bormogda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va ommahon ko'rsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar haqida ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, «eko» — uy, makon va «logos» — fan degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimimizni o'rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni